Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
<i>Mirzaraximova Aziza Azimdjano</i>	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
<i>Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna</i>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
<i>Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi</i>	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
<i>Islamova Dilnoza Isamidinovna</i>	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
<i>Uzaqov Jamshid Norboyevich</i>	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
<i>Shaymanov Mexridin Ibragimovich</i>	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
<i>Sadikova Ra'no Abdullaevna</i>	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
<i>Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
<i>Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.</i>	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
<i>Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich</i>	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
<i>Alisher Kurambayev</i>	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
<i>Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
<i>Valikulov Sherzod Zaynitdinovich</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
<i>Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
<i>Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi</i>	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
<i>Xaydarova Sayyora</i>	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
<i>Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna</i>	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
<i>Usmanova Gulida Valiyevna</i>	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
<i>Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova</i>	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
<i>Sobirov Abdurasul Abdugafarovich</i>	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Hayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UN DAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BREN DLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDBUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVLASHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ	1223
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
Salamov Islom Tashkazzakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Serali qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	1281
Sabirov Xamid Qo'ziboyevich	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
N.Bekmurodov	
KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1291
Gafurova Umida Fatixovna	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	1296
Fayziyev Orifjon Olimovich	
РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	1302
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI.....	1310
Mangliyev Bezzod To'raboy o'g'li	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI	1315
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	
MEHNAT MUNOSATLARINI TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI PLATFORMALARINING O'RNI	1321
I.A.Bakiyeva, S.A.Bozorova	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	1327
Usmanova Zumrad Islamovna	
"YASHIL" XIZMAT KO'RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISH: SOLIQ SIYOSATI VA DAVLAT BOSHQARUVI JIHATIDAN TAHLIL.....	1333
Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ТРАНСПОРТНАЯ ДОСТУПНОСТЬ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РАЙОНОВ	1339
Кеунимжаев Мухамедали Куанышбаевич	
TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUDLARARO IQTISODIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	1344
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING ILMIY TADQIQOTLARDAGI TALQININING ILMIY TAHLILI.....	1350
Ro'ziqulov Shunqor Tohir o'g'li	
BANKLARNING QO'SHILISH VA QO'SHIB OLIISH OPERATSIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	1356
Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
RAQAMLASHTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	1361
Umurzak Ablakulovich Radjabov	



ISHLAB CHIQRADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI	1366
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUVDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE'MOLI TARTIBINI AMALGA OSHIRISH.....	1374
Matkarimov Mansur Maksudovich	
DEVELOPMENT OF HERITAGE-BASED EXCURSION ACTIVITIES IN THE BUKHARA REGION	1379
Murodjonov Bahrombek Gulomaliyevich, Istamkhuj Olimovich Davronov, Radjabov Odil Olimovich	
TRANSPORT TURLARI FAOLIYATINI BIRLASHTIRISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH.....	1385
Giyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTI RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	1388
Usmonov Shermuhammad Xaydar o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1391
Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li	
IJTIMOY TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA AHAMIYATI	1396
Muxsiddinov Mansurjon Maxmudjon o'g'li	



IJTIMOYIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA AHAMIYATI

Muxsiddinov Mansurjon Maxmudjon o'g'li

University of Business and Science

“Yashil iqtisodiyot” kafedrası assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining nazariy asoslari, uning iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy faoliyat orqali dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etish, ijtimoiy qiymat yaratish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan innovatsion tadbirkorlik shakli sifatida ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, mazkur faoliyat turining bandlikni oshirish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, innovatsion tadbirkorlik, ijtimoiy qiymat, bandlik, kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of social entrepreneurship, its economic and social essence, and its significance in societal development. Social entrepreneurship is scientifically substantiated as an innovative form of entrepreneurial activity aimed at addressing pressing social issues, creating social value, and ensuring sustainable development. Furthermore, the study highlights its role in increasing employment, reducing poverty, and mitigating social inequality.

Key words: social entrepreneurship, innovative entrepreneurship, social value, employment, poverty, social inequality, sustainable development.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы понятия социального предпринимательства, его экономическая и социальная сущность, а также значение в развитии общества. Социальное предпринимательство рассматривается как инновационная форма предпринимательской деятельности, направленная на решение актуальных социальных проблем, создание социальной ценности и обеспечение устойчивого развития. Кроме того, раскрывается его роль в повышении занятости, сокращении бедности и снижении социального неравенства.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, инновационное предпринимательство, социальная ценность, занятость, бедность, социальное неравенство, устойчивое развитие.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida iqtisodiy o'sishni ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy tadbirkorlik fenomeni jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallamoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy foyda olishga, balki ijtimoiy, madaniy va ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida ijtimoiy muammolarni hal etishning samarali va barqaror mexanizmlarini izlash ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi. Mazkur jarayonda ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarni uyg'unlashtiruvchi innovatsion model sifatida shakllanib bormoqda. O'zbekiston sharoitida ushbu soha bosqichma-bosqich rivojlanmoqda va uni rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiy tizimda tobora muhim o'rin egallayotgan sohalardan biridir. U klassik biznes modelidan farqli ravishda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ekologik va madaniy muammolarni bartaraf etishga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlar o'z faoliyatining uzluksizligini ta'minlash maqsadida iqtisodiy barqarorlik va yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lishi lozim.

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlanib bormoqda. 2021-yilda "Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ushbu sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Shuningdek, soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar hamda ayrim soliq imtiyozlarining joriy etilishi ijtimoiy tadbirkorlik



subyektlari uchun qulay institutsional muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Amaliyot jarayonida huquqiy-tashkiliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, bu sohaning barqaror rivojlanishiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

2021-yilda qabul qilingan "Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonun bilan ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining huquqiy maqomi va tushunchasi aniq belgilab berildi. Mazkur hujjatga muvofiq, ijtimoiy tadbirkorlar ijtimoiy foyda keltirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Shu bois ularning soliq yukini an'anaviy biznes subyektlariga nisbatan ma'lum darajada yengillashtirish nazarda tutilgan. Jumladan, daromad solig'i, yer solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha ayrim imtiyozlar qo'llanishi mumkin. Soliq kodeksida "ijtimoiy tadbirkorlik" tushunchasi alohida norma sifatida to'liq ifoda etilmagan bo'lsa-da, ijtimoiy sohalarda faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlar uchun belgilangan yengilliklar mazkur subyektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy tadbirkorlik masalasi xorijiy ilmiy adabiyotlarda XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol o'rganila boshlandi. Xorijiy olimlar mazkur fenomenni ijtimoiy innovatsiya va bozor mexanizmlarining uyg'unlashuvi sifatida talqin qiladilar. Jumladan, J. G. Dees ijtimoiy tadbirkorlikni ijtimoiy qiymat yaratishga qaratilgan innovatsion faoliyat sifatida izohlab, unda iqtisodiy daromad vosita, ijtimoiy ta'sir esa asosiy maqsad ekanligini ta'kidlaydi. D. Bornstein va S. Davis esa ijtimoiy tadbirkorlikni tizimli ijtimoiy muammolarga barqaror va bozor tamoyillariga asoslangan yechim taklif etuvchi model sifatida baholaydi.

Nazariy jihatdan ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar integratsiyasiga asoslanadi. U klassik foyda maksimalizatsiyasi modelidan farqli ravishda, ijtimoiy samaradorlikni ustuvor maqsad sifatida belgilaydi. Shu bois, ilmiy adabiyotlarda u "gibrid model" yoki "oraliq institut" sifatida tavsiflanadi.

O'zbekiston olimlari va tadqiqotchilari esa ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy, institutsional hamda soliq mexanizmlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. 2021-yilda "Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy rivojlanishiga yangi bosqich olib kirdi. Mahalliy tadqiqotlarda ijtimoiy tadbirkorlikning bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi.

Shunday qilib, oldingi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion, barqaror va ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanish modelining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning mohiyati iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar integratsiyasida namoyon bo'ladi. U uch asosiy elementni birlashtiradi:

1. ijtimoiy maqsad – muayyan ijtimoiy muammoni hal etish (ishsizlik, nogironlar bandligi, ekologiya, ta'lim va boshqalar);
2. tadbirkorlik yondashuvi – bozor mexanizmlaridan foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish va risklarni boshqarish;
3. barqaror moliyaviy model – grant yoki subsidiyalarga to'liq bog'liq bo'lmagan holda mustaqil daromad shakllantirish.

Shu tariqa, ijtimoiy tadbirkorlik davlat sektori va xususiy biznes o'rtasidagi o'ziga xos institutsional ko'prik vazifasini bajaradi. U davlat ijtimoiy siyosatini to'ldiradi hamda bozor iqtisodiyotining samaradorlik mexanizmlaridan foydalanadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik nazariyasi XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy muomalaga faol kirib kelgan bo'lib, dastlab u ijtimoiy innovatsiyalar va fuqarolik tashabbuslari bilan bog'liq holda talqin etilgan. Dees (2001) ijtimoiy tadbirkorlikni ijtimoiy qiymat yaratishga qaratilgan innovatsion faoliyat sifatida izohlaydi hamda unda iqtisodiy daromad vosita, ijtimoiy ta'sir esa asosiy maqsad ekanligini ta'kidlaydi. Bornstein va Davis (2010) esa ijtimoiy tadbirkorlikni jamiyatdagi tizimli muammolarga barqaror va bozor mexanizmlariga asoslangan yechim taklif etuvchi model sifatida baholaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy va soliq jihatlari alohida o'rganilgan. Xususan, Yerjanov (2025) mazkur faoliyatni tartibga solishda soliq va huquqiy mexanizmlarning ahamiyatini asoslab beradi. O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda "Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ushbu yo'nalishning institutsional rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Shu tariqa, ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy natijadorlikni uyg'unlashtiruvchi innovatsion model sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslari, institutsional rivojlanish jarayonlari hamda uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, analiz va sintez usuli orqali ijtimoiy tadbirkorlikning mohiyati va



tarkibiy elementlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Induksiya va deduksiya usullari yordamida umumiy nazariy qarashlardan kelib chiqib, ijtimoiy tadbirkorlikning amaliy jihatlari asoslab berildi.


Shuningdek, qiyosiy (komparativ) tahlil usuli asosida xorijiy va mahalliy olimlarning yondashuvlari o'rganildi hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari baholandi.

Tadqiqotning axborot bazasini ilmiy maqolalar, monografiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik ma'lumotlar tashkil etadi. Mazkur metodologik yondashuv ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, ijtimoiy tadbirkorlik yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aholining ijtimoiy zaif qatlamlari (nogironlar, kam ta'minlangan oilalar va boshqalar) manfaatlariga yo'naltirilgan faoliyat sifatida e'tirof etiladi. Amaldagi tartibga ko'ra, tushumning kamida 50% ijtimoiy tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan shakllanishi lozim. Bu jihat ijtimoiy tadbirkorlikni an'anaviy biznes faoliyatidan ajratib turadi hamda unda jamiyat manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etishini belgilaydi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:



Bandlik nuqtai nazaridan ijtimoiy tadbirkorlik mehnat bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U, avvalo, yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni ish bilan ta'minlash, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

An'anaviy biznes subyektlari, odatda, yuqori iqtisodiy samaradorlik va rentabellikka yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy tadbirkorlik mehnat bozorida qo'shimcha qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun ham munosib ish o'rinlarini yaratishga intiladi. Xususan, quyidagi guruhlar ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatining asosiy benefisiarlari hisoblanadi:

- nogironligi bo'lgan shaxslar;
- yoshlar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari;
- ayollar, ayniqsa qishloq hududlarida istiqomat qiluvchilar;
- uzoq muddat ishsiz shaxslar;
- kam ta'minlangan oilalar vakillari.

Shu tariqa, ijtimoiy tadbirkorlik inklyuziv bandlik modelini shakllantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Kambag'allikni kamaytirish har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ustuvor vazifalardan biridir. Ijtimoiy tadbirkorlik ushbu jarayonga bir necha yo'nalishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun ish o'rinlari yaratish orqali barqaror daromad manbalarini shakllantiradi. Ikkinchidan, hududiy resurslardan samarali foydalanish, kichik biznes va mikrobiznesni rivojlantirish orqali



mahalliy iqtisodiy faollikni oshiradi. Uchinchidan, o'zini o'zi band qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish orqali aholiga tadbirkorlik va hunarmandchilik bilan shug'ullanish imkonini yaratadi. To'rtinchidan, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi hamda ekologiya sohalarida loyihalarni amalga oshirish orqali aholining ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Natijada, kambag'allikni qisqartirish nafaqat daromadlarning oshishi, balki ijtimoiy imkoniyatlarning kengayishi orqali ham ta'minlanadi.

Ijtimoiy tengsizlik jamiyatda resurslar, imkoniyatlar va xizmatlardan foydalanishdagi tafovutlar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy tadbirkorlik ushbu tafovutlarni kamaytirishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U nogironligi bo'lgan shaxslar, uzoq muddat ishsizlar, yoshlar va ayollar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi; ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish ko'lamini kengaytiradi; qishloq hududlari va mahalliy jamoalarda iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi; ijtimoiy innovatsiyalar orqali aholining turli qatlamlari o'rtasidagi tafovutni qisqartirishga xizmat qiladi. Natijada, jamiyatda tenglik tamoyillari mustahkamlanadi va barqaror ijtimoiy muhit shakllanadi.

Ijtimoiy tadbirkorlar ko'pincha mavjud ijtimoiy muammolarga innovatsion yechimlar taklif etadi. Ushbu jarayon yangi biznes modellari va xizmatlarni yaratish, texnologik va raqamli yechimlarni joriy etish, kichik va mikrobiznes sohalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi. Shu orqali ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyatni uyg'unlashtirib, yangi ish o'rinlari hamda barqaror daromad manbalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tadbirkorlik davlatning ijtimoiy xarajatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy muammolarni bozor mexanizmlari asosida hal etish orqali subsidiya va yordam xarajatlarini optimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi. O'zini o'zi moliyalashtiruvchi loyihalar davlat byudjetiga qo'shimcha yuk tushirmasdan ijtimoiy natijaga erishishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, soliq tushumlarining ortishi va barqaror ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimining shakllanishi ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyotda muhim institutsional hodisa sifatida shakllanib, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarni uyg'unlashtiruvchi samarali mexanizm hisoblanadi. Uning mohiyati ijtimoiy muammolarni bozor mexanizmlari asosida hal etish hamda barqaror ijtimoiy qiymat yaratishda namoyon bo'ladi.

Mazkur faoliyat turi aholi bandligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish va jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish hamda davlat byudjeti xarajatlari samaradorligini oshirishda ham muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy ustunligi ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarni o'zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirishidir. Shu bois, u zamonaviy iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida ijtimoiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda normativ-huquqiy bazani yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6247-son Farmoni. 2021-yil 3-iyun. <https://lex.uz/docs/-5459107?ONDATE=20.01.2024>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni. – 2021-yil.
3. Yerjanov, Shohrux Kabil o'g'li. Ijtimoiy tadbirkorlikni tartibga solishda soliq va huquqiy mexanizmlar // Zamin ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025-yil–20-sentabr. – 1-jild, 8-son (2025).
4. Bornstein, D., & Davis, S. (2010). Social Entrepreneurship: What Everyone Needs to Know. Oxford: Oxford University Press.
5. Dees, J. G. (2001). The Meaning of Social Entrepreneurship. Center for the Advancement of Social Entrepreneurship.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
